

**HAYVONLARGA NISBATAN SHAFQATSIZ MUNOSABATDA BO'LISH UCHUN JINOIY  
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Akramova Marjona Oripovna  
Navoiy viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha  
Nurota tuman sudi arxivariusi  
marjonaakramova2001@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Hozirgi kunda ekologik muammolar, xususan, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar yetkazish bilan bog'liq sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish dolzarb masalalardan biri ekanini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu sohada barqarorlikka erishish maqsadida mazkur turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik aks etgan mavjud qonunchiligimizni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish jinoyati uchun javobgarlik masalalari tahlil qilinadi hamda mazkur ijtimoiy xavfli qilmish uchun javobgarlikni takomillashtirish bo'yicha asoslangan taklif va tavsiyalar ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilingan holda beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik jinoyat, jinoiy javobgarlik, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat, qiynash, azob berish, g'arazli va past niyatlar, sadistik usullar, og'irlashtiruvchi holatlar.

**Kirish**

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ularga nisbatan ijobiy munosabatni ta'minlash zamonaviy huquqiy davlatchilikning muhim belgisi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib ko'plab mamlakatlarda ekologiyaning ajralmas qismi hisoblangan hayvonot dunyosi muhofazasining bir turi sifatida hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik maxsus qonunchilik bilan qattiq tartibga solingan bo'lib, ushbu soha jamiyatning axloqiy taraqqiyot ko'rsatkichi sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" [1] deb belgilab qo'yilgan. Hayvonot dunyosi atrof tabiiy muhitning bir qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, fuqarolarning yuqoridagi konstitutsiyaviy burchlarini bajarmasligi javobgarlikka sabab bo'lishi muqarrar.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-sonli qarorida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, xususan ushbu qarorga ilova qilingan "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasini hamda ekologik nazorat tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha" yo'l xaritasida kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvon turlaridan foydalanishni ta'qiqlovchi va cheklovchi talablarni belgilash [2] kabi chora-tadbirlar rejasi nazarda tutilgan bo'lsa-da, jinoiy javobgarlik sohasida qo'shimcha islohotlar hamda jiddiy tuzatishlar zarur.

**Tadqiqotda foydalanilgan metodlar**

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda normativ-huquqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, analiz, sintez, ilmiy manbalarni tizimli tadqiq etish kabi usullardan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Yuqorida nazarda tutilgan ilmiy tadqiqot usullari asosida hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish jinoyatini tahlil qilish orqali jinoyat tarkibi muhokama qilinadi, mazkur jinoyatning ma'muriy javobgarlik bilan munosabati va preyditsiya masalasi o'rganiladi, ijtimoiy qilmish uchun og'irlashtiruvchi holatlar tizimini joriy qilish hamda sanksiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim davlatlarning qonunchiligini o'rganish orqali asosli takliflar ishlab chiqiladi, jumladan, hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish takroran yoki xavfli retsidivist yoxud ilgari Jinoyat kodeksining 202-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan, voyaga yetmaganlar huzurida, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib namoyish qilgan holda sodir etilishi uchun yangi normalarni kiritilish maqsadida asosli tavsiyalar nazarda tutiladi.

### **Tadqiqot muhokamasi**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202<sup>1</sup>-moddasida hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun jinoiy javobgarlik quyidagicha ko'rsatilgan: "Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda ularni qiynoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o'limiga yoki mayib bo'lishiga olib kelsa, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi" [3].

Mazkur jinoyatning obyekti – hayvonlarni saqlash sohasini tartibga soluvchi munosabatlar hamda ijtimoiy axloq normalari hisoblansa, obyektiv tomondan ushbu jinoyat hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni g'arazli va boshqa past niyatlarda ularni qiynoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o'limiga yoki mayib bo'lib qolishiga olib kelishi, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilishida ifodalanadi [4].

Jinoyat bo'yicha har qanday 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs subyekt bo'lishi mumkin.

Jinoyatning g'arazli va boshqa past niyatlarda sodir etilishi subyektiv tomonning asosiy sharti hisoblanadi.

Mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat bezorilik yoki g'arazli motivlarda sodir etilgan taqdirda yuzaga keladi. Bezorilik motivlari – bu jamiyatga qarshi chiqish, odob-axloq normalarini mensimaslik, o'zini jamiyatga qarma-qarshi qo'yish istagida namoyon bo'ladigan motivlardir. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bunday motivlar aybdorning ochiq, namoyishkorona va sababsiz ravishda hayvonga azob berishda ifodalanadi. G'arazli motiv esa moddiy manfaat olish yoki xarajatlarni kamaytirish istagi bilan bog'liq. Masalan, hayvonlar jangi orqali foyda olish, tomoshabinlardan pul undirish, totalizatorlar tashkil etish g'arazli motivga misol bo'la oladi [5].

Yuqoridagi norma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O'RQ-711-sonli Qonuni asosida kiritilgan. Bunga qadar ushbu qilmish uchun faqatgina O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 111-moddasida ma'muriy javobgarlik mavjud bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish choralari belgilanib, tabiatdan foydalanish sohasidagi ayrim jinoiy javobgarliklarning kuchaytirilishi bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa-da, ammo ko'rinadiki, amaldagi Jinoyat kodeksining 202<sup>1</sup>-moddasi faqat bitta

qismdan iborat bo'lib, qilmishning og'irlashtiruvchi holatlari umuman nazarda tutilmagan. Mazkur modda tuzilishi ixcham va aniq ko'rilsa-da, bu ixchamlik aslida normaning huquqiy kuchini sezilarli darajada susaytiradi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Ta'kidlab o'tish lozimki, xorijiy mamlakatlarning ko'pchiligida og'irlashtiruvchi holatlarda hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun javobgarlik nazarda tutilgan, shuningdek, preyuditsiya masalasi bo'yicha hayvonlarga shafqatsizlik qilish ma'lum bir oqibatga olib kelmagan taqdirda ma'muriy javobgarlik, salbiy oqibatga sabab bo'lganda (hayvonlarning mayib bo'lishi, ularning o'limiga olib kelishi) esa to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, ammo bunday javobgarlikning yuqorida nazarda tutilgan tizimi bizning qonunchiligimizda yetarli darajada ko'rsatilmagan.

Binobarin, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining axloqqa qarshi jinoyatlar nazarda tutilgan bobidan joy olgan hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish (RF JK 245-modda) normasi quydagicha aks ettirilgan:

Hayvonga og'riq va azob berish maqsadida, shuningdek, bezorilik va xudbinlik niyatida uning o'limiga yoki jarohatlanishiga sabab bo'lgan shafqatsizlik –

sakson ming rublgacha jarima yoki mahkumning olti oygacha bo'lgan ish haqi yoki boshqa daromadi miqdorida yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy mehnat yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha majburiy mehnat yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) bir guruh shaxslar, oldindan til biriktirib sodir etilgan shaxslar guruhi yoki uyushgan guruh tomonidan;

b) voyaga yetmagan shaxs huzurida;

c) sadistik usullardan foydalanish;

d) ommaviy namoyish orqali, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida yoki axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida (shu jumladan Internetda) namoyish qilish orqali;

d) bir nechta hayvonlarga nisbatan —

yuz mingdan uch yuz ming rublgacha jarima yoki mahkumning bir yildan ikki yilgacha bo'lgan ish haqi yoxud boshqa daromadi miqdorida yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yilgacha majburiy mehnat yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [6].

Yuqorida og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilgan bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, voyaga yetmagan shaxs huzurida, ommaviy namoyishdan foydalanib, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida yoki axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida (shuningdek, Internetda) namoyish qilish orqali, bir nechta hayvonlarga nisbatan — kabi holatlar uchun Qozog'iston, Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning qonunchiligida ham javobgarlik mavjud.

Shu o'rinda xorijiy davlatlarda hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun qo'llaniladigan jazo tizimi haqida ham to'xtalib o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Qozog'iston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko'ra, og'irlashtiruvchi holatlarda hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun 2 yilgacha qamoq jazosi [7] nazarda tutilgan. Ayrim davlatlarda esa mazkur qilmish uchun javobgarlik ularning alohida qonunlari bilan belgilangan, jumladan, Buyuk Britaniyaning "Hayvonlar farovonligi to'g'risida"gi Qonuni (2006) hamda "Hayvonlar farovonligi (Jazo) to'g'risida"gi Qonuniga (2021) asosan hayvonlarga shafqatsizlik uchun 5 yil muddatga qamoq jazosi (2021-yildan boshlab hayvonlarga shafqatsizlik uchun maksimal qamoq muddati 6 oydan 5 yilgacha oshirilgan) [8]; AQShda hayvonlarni qiynash federal jinoyat deb e'lon qilinib, "Hayvonlarga shafqatsizlik va qiynoqning

oldini olish to'g'risida"gi Federal Qonuniga ko'ra, 7 yilgacha qamoq jazosi [9]; Germaniyaning "Hayvonlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga (1972-yilda qabul qilingan, 2021-yil yangilangan) ko'ra, hayvonlarni qasddan qiynash uchun 3 yilgacha qamoq jazosi [10]; Janubiy Koreyaning "Hayvonlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida (1991-yilda qabul qilingan, 2024-yil yangilangan) og'irlashtiruvchi holatlarda (ko'plab hayvonlarga nisbatan, takroriy) hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish uchun 3 yilgacha qamoq jazosi [11] tayinlanishi nazarda tutilgan.

Amaldagi Jinoyat kodeksimizda esa hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilganligi xalqaro standartlardan keskin farq qilishini ko'rsatadi. Mazkur jinoyat uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha jarima, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzida kuchaytirilishi jamiyatning axloqiy yetukligini yanada oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 111-moddasida hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni ularni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda qiynoqqa solish yoki ularga azob berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima; xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa yoxud ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxs hozirlikida sodir etilgan bo'lsa yoki hayvonlarning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib kelsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olish jazosiga [12] sabab bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Biroq birinchi marotaba sodir etilgan hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish g'ayrihuquqiy qilmishini sodir etganligi uchun ma'muriy jazo qo'llanilgan shaxsning takroran shu qilmishni sodir etishi mazkur shaxsning axloqan tuzalishi uchun qo'llanilgan jazo yetarli bo'lmaganligini anglatadi. Shuningdek, ushbu harakatlarni voyaga yetmaganlar huzurida sodir etilishi o'sib borayotgan yosh avlodlarning axloqiy muhitiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishini inobatga olib, mazkur holatni ma'muriy huquqbuzarlik sifatida emas, balkim jinoyat sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqot yuzasidan olib borilgan o'rganishlar natijasida hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun javobgarlik belgilangan amaldagi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 111-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202<sup>1</sup>-moddasi quyidagicha o'zgartirilishi taklif qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 111-moddasi:

"Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni ularni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda qiynoqqa solish yoki ularga azob berish — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik hayvonlarning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib kelsa (O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar bundan mustasno) — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi" tarzida o'zgartirilishi taklif beriladi.

Shuningdek, qiyosiy-huquqiy tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202<sup>1</sup>-moddasining jazo tizimi kuchaytirilgan hamda og'irlashtiruvchi holatlarda mazkur qilmishni sodir etganlik uchun javobgarlik aks etgan quyidagi tahriri ishlab chiqildi:

“Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda ularni qiynoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o'limiga yoki mayib bo'lishiga olib kelsa, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilcha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ikki va undan ortiq shaxslar tomonidan;
- v) ommaviy axborot vositalarida yoki axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida (shu jumladan Internetda) namoyish qilish orqali sodir etilgan bo'lsa;
- g) ikki yoki undan ortiq hayvonlarga nisbatan;
- d) voyaga yetmagan shaxslar huzurida;
- e) O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

Hayvonlarga nisbatan adolatli munosabat nafaqat axloqiy burch, balki kriminogen muhitni zaiflashtirish va insonlarga qarshi zo'rovonlikning oldini olish uchun samarali vosita ekanini inobatga olsak, yuqoridagi takliflarni qonunchilikka kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## **Xulosa**

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish masalasi — bu nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy, axloqiy va insoniy ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammodir.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hayvonlarni himoya qilish sohasida muayyan huquqiy asosga ega bo'lsa-da, jinoiy javobgarlikni belgilash va amalga oshirish mexanizmlarida bir qator tizimli kamchiliklar mavjud. Xususan, moddada og'irlashtiruvchi holatlarning nazarda tutilmaganligi, sanksiyalarning past darajasi, tarkibiy belgilarning noaniq ifodalanganligi, sud-tergov amaliyotida yagona yondashuvning mavjud emasligi — bularning barchasi qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Taklif etilayotgan normalar bir qator muhim huquqiy tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, javobgarlikning muqarrarliligi tamoyili — har qanday hayvonga shafqatsizlik holati javobgarliksiz qolmasligi lozim. Ikkinchidan, differensiallashuv tamoyili — qilmishning og'irligiga, oqibatlariga va sodir etilish sharoitlariga qarab jazo aniq belgilanishi zarur. Uchinchidan, profilaktika tamoyili — ayniqsa voyaga yetmagan shaxslar huzurida sodir etiladigan bunday qilmishlarni alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilash orqali jamiyatning axloqiy muhitini himoya qilish ta'minlanadi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tirik mavjudotlarga insoniy munosabatda bo'lish — bu millatning madaniy, axloqiy va huquqiy yetuklik darajasini belgilovchi eng muhim mezonlardan biridir. Qonun

oldida barcha tirik mavjudotlarning manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy davlat qurish — O'zbekiston Respublikasining ham huquqiy, ham axloqiy burchiga aylanib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida asosida qabul qilingan yangi tahrir]. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-son qarori [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: LexUZ milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-5801426?ONDATE=01.01.2025>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi [2026-yil 20-martgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan] – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2026-yil. 195-196-b.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M.Rustambayev. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2025. – 73-74-b.
5. Е.Б.Бочаев. Субъективная сторона состава жестокого обращения с животными. Социально-экономические явления и процессы. № 9 (055), 2013. <https://cyberleninka.ru/article/n/subektivnaya-storona-sostava-zhestokogo-obrascheniya-s-zhivotnymi/viewer>
6. Уголовный кодекс Российской Федерации (УК РФ). 13.06.1996. № 63-ФЗ (последняя редакция). [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/)
7. Уголовный кодекс Республики Казахстан. 3 июля 2014 года №226-V ЗРК. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K14000002268>
8. Animal Welfare Act 2006 + Animal Welfare (Sentencing) Act 2021. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/45/contentshttps://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/724>
9. Preventing Animal Cruelty and Torture Act — PACT Act (2019). <https://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/724>
10. "Tierschutzgesetz in der Fassung der Bekanntmachung vom 18. Mai 2006 (BGBl. I S. 1206, 1313), das zuletzt durch Artikel 2 Absatz 20 des Gesetzes vom 20. Dezember 2022 (BGBl. I S. 2752) geändert worden ist". <https://www.gesetze-im-internet.de/tierschg/BJNR012770972.html>
11. The Animal Protection Act of the Republic of Korea (enacted in 1991, revised in 2024). <https://koreananimals.org/south-koreas-animal-protection-laws/>
12. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan (o'zgartirishlar bilan). — Toshkent, 1994. — Lex.uz: <https://lex.uz/ru/docs/-97664v>